

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Rahmonova Hilola Muxtorovna,

Farg'ona shahar 10-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

guliikromova9413@mail.ru

Annotatsiya.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda innovatsion yondashuvlar va matematik kompetensiya haqida haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:

matematik kompetensiya, intellekt, kompetensiyaviy yondashuv, matematik ta'lim, kommunikativlik, axborot muhiti, mehnat bozori.

Annotation:

this article discusses the innovative approaches and mathematical competence in teaching mathematics in the primary schools.

Keywords:

mathematical competence, intelligence, competency approach, mathematical education, communication, information environment, labor market.

Аннотация:

в данной статье рассматриваются инновационные подходы и математическая компетентность в преподавании математики в начальных школах.

Ключевые слова:

математическая компетентность, интеллект, компетентностный подход, математическое образование, коммуникация, информационная среда, рынок труда

Mamlakatimizda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda.

Jamiyatning, axborot muhitining va mehnat bozoridagi holatning jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta'lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Bu esa matematikani o'qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqilishini talab qilmoqda. Faqat bilim olishga yo'naltirilgan ta'lim o'tgan zamonda qolmoqda.

Jamiyatimiz oldida vujudga kelayotgan muammolarni hal etishga faol kirisha oladigan, sharoitni yaxshi tushunadigan, keng qamrovli fikrlaydigan, hayotda uchraydigan kundalik va kasbiy muammolarni tushunadigan, tahlil qila oladigan, taqqoslay oladigan, amaliy hal eta oladigan insonlarga bo'lgan talab qo'yilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi.

Birinchi Prezidentimiz juda o‘rinli ta’kidlab o‘tganlaridek, «chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg‘itadi. Faqat bahs-munozara, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin»

Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu xolatlardan chiqqa oladigan bo‘lishi kerak. Hamma bunday sifatlarni matematika ta’limida kompetensiyaviy yondoshuvdan foydalanish asosida erishish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetensiyaviy yondoshuv ta’lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o‘qitish yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta’limning yangicha mazmunining asosini o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi.

Ta’limga kompetensiyaviy yondoshuv eskirib qolgan “bilim, ko‘nikma va malakani o‘zlashtirish” kontsepsiyasiga qarshi o‘laroq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalarni o‘quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondoshuvda matematik ta’limning asosini amaliy, tadbiiy yo‘nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, tuzilayotgan ta’lim standartlari o‘quvchilarning oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olishlari, turli kasb egalari bo‘lishlari va har tomonlama faol fuqaro bo‘lishlari uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni aks ettirishi kerak.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga matematikani o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta’minlanadi.

Standart loyihasi tuzilishda quyidagi umume’tirof etilgan xalqaro meyorlardan foydalanilgan:

Yevropa Kengashining “Uzluksiz ta’lim uchun tayanch kompetensiyalar – umumevropa standartlari strukturasi” to‘g‘risidagi hujjati («Key competences for lifelong learning — a European Reference Framework»)

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o‘quvchilarni baholash Dasturi (Programme for International Student Assessment (PISA)) standartlari.

Ta’lim natijalarini baholash bo‘yicha Xalqaro Assotsiatsiyasining (International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA)) Xalqaro matematika va aniq va tabiiy fanlarning tendensiyalarini o‘rganish markazi (Trends in international mathematics and science study Center (TIMSS)) standartlari.

Kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy hamda fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari tushunchalariga umumiy ta’riflar berilgan bo‘lsa ham, kompetensiyalarga matematika fanining o‘ziga xosligi va o‘quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatini hisobga olgan holda yondashish zarur.

Ta’rif: Matematik kompetensiya – kundalik holatlarda vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun matematik mushohada yurita olish va uni qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishdir.

Hisob-kitoblarni amalga oshirishning rivojlangan ko‘nikmalariga tayangan holda asosiy urg‘u tafakkur yuritish, bilim va malakalarga beriladi.

Xulosa qilib aytganda, matematik kompetensiya - turli darajada matematik mushohada yurita olish (mantiqiy va fazoviy tafakkur) hamda ma’lumotlarni taqdim etish usullarini puxta egallash va qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E, Matematika o‘qitish metodikasi (KHKuchun) -Toshkent: Ilm Ziyos. 2011-yil.